



## ZOOLOGIYA FANINI O'QITISHDA AMALIY VA KO'RGAZMALI USLUBLARNING SAMARADORLIGI

**Bahriyeva G.N.**

**Ruziqulova N.A.**

*Texnologiya, menejment va kommunikatsiya  
instituti Samarqand davlat tibbiyot  
universiteti Samarqand, O'zbekiston.*

**Annotatsiya.** Maqolada zoologiya fanini o'qitishda amaliy va ko'rgazmali uslublarni qo'llash orqali dars samaradorligini oshirish, ilmiy tadqiqot olib borish qobiliyati, ijodkorlik, mustaqil izlanish, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, fanga qiziqishini chuqurlashtirish ko'nikma va malakasi shakllantirish mezonlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** amaliy uslublar, ko'rgazmali uslublar, pedagogika, zoologiya, o'quvchi, o'zlashtirish, ko'nikma, malaka.

**Abstract.** The article provides information about the criteria for increasing the efficiency of the lesson, the ability to conduct scientific research, creativity, independent research, forming a scientific worldview, deepening interest in science, skills and qualifications by using practical and demonstrative methods in the teaching of zoology.

**Key words:** practical methods, demonstration methods, pedagogy, zoology, student, acquisition, skills, competence.

Biologiya fanini o'qitishda ko'rgazmali va amaliy uslublar keng qo'llaniladi. O'qitishning ko'rgazmali usullari orqali mavzuni tushuntirishda samarali foydalanish va ijobiy natijalarga erishish mumkin. O'qitishning amaliy usullari bevosita o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq. Amaliy usullarni qo'llash orqali o'quvchilarning o'qishga qiziqishini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, nazariy va amaliy bilim faolligini oshirish, fikrlash, amaliy ko'nikmalar va o'quv ishlari ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Ta'limda vizualizatsiyadan foydalanish tamoyili sezish va idrok etish jarayonida rivojlanadigan narsa va hodisalarning barcha hissiy tasvirlari asosida maktab o'quvchilarining g'oyalari va tushunchalarini shakllantirish zarurligini aks ettiradi. Maktab fanlarining aksariyat qismini muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun o'quvchilarda etarlicha jonli va aniq g'oyalarni shakllantirish kerak. Tadqiqot maqsadi maktab o'quvchilarida zoologiya fanini o'qitishda ko'rgazmali va amaliy uslublarni qo'llash orqali o'zlashtirish samaradorligini oshirish hisoblanadi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Zoologiya fanini o'qitishda amaliy va ko'rgazmali uslublarning samaradorligi matematik tahlil qilish

**Metodika.** Tadqiqotning metodologik asosini zoologiya fani bo'yicha darslarda ko'rgazmali va amaliy usullardan foydalanishning pedagogik hodisalar tahliliga modeli yondashuv nazariyasi tashkil etadi. Tadqiqotning me'yoriy metodologiyasi O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, davlat va hukumatning ta'limga oid qarorlari va direktiv hujjatlariga tayanadi [5].



Ko'rgazmali va amaliy usullardan foydalanishni tashkil etish, unga doir adabiyotlar bilan ishlash, kuzatish, eksperiment, statistik tahlil va natijalarni matematik tahlil qilish metodlaridan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalari va muhokama.** Biz tomonimizdan tadqiqot bo'yicha nazariy izlanishlar yakunlangandan so'ng, zoologiya fanini o'qitishda ko'rgazmali va amaliy uslublarni qo'llash uchun pedagogik tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Bunda Samarqand shahar XTB tasarrufidagi 14-umumiy o'rta ta'lim va Toyloq tumani XTB tasarrufidagi 14-umumiy o'rta ta'lim maktabining 7-sinflari tanlab olindi. Bunda Samarqand shahar 14-maktabning 7-"A" sinf tajriba sinfi, 7-"B" sinf nazorat sinfi, Toyloq tumani 14-maktabning 7-"A" sinf tajriba sinfi, 7-"B" sinf nazorat sinfi sifatida tanlab olindi. Jami o'quvchilar 110 nafar, shundan tajriba sinflarida 57 nafar, nazorat sinflarida 53 nafar o'quvchi tanlandi. Tajriba-sinov sinfi sifatida tanlab olingan Samarqand shahar 14-maktabning 7-"A" sinfidagi darslar tashkil etildi. Darslar zoologiya fani o'qituvchisi (I.Bekliyeva) bilan hamkorlikda olib borildi. Toyloq tumani 14-maktabning 7-"A" sinfidagi darslar tashkil etildi. Darslar zoologiya fani o'qituvchisi (D.Ahmedova) bilan hamkorlikda olib borildi. Bunda o'quvchilar individual, guruh va juft-juft bo'lib ishlashdi, o'qituvchi tomonidan belgilangan chegaralar doirasida materialni o'rganish hajmi va tezligini mustaqil ravishda nazorat qilishga o'rgatildi. Bunda darslik bilan mustaqil ishlash, o'quvchilarning mustaqil kuzatishlari, og'zaki mashqlar, yozma, grafik, amaliy ishlar kabi amalga oshirish usullaridan foydalanildi.

Maqsadlarni shakllantirish bosqichida o'qituvchi, o'qituvchi va talabalar birgalikda, talabalar mustaqil ravishda ishlar olib borildi. O'qituvchi tomonidan qaror qabul qilish ko'rgazmali va amaliy uslublarni samarali qo'llash va o'quv materialini samarali o'zlashtirish uchun ta'lim holatini rivojlantirishning maqbul variantini tanlashdan iborat bo'ldi. Zoologiya darslarida amaliy usullardan foydalanish o'quvchilarda nafaqat o'zlashtirish darajasining oshishiga, balki ularda tadqiqotchilik xususiyatlarining shakllanishiga olib keladi.

Tajriba-sinov bo'yicha olib borilgan izlanishlarda zoologiya darslarida ko'rgazmali va amaliy usullardan foydalanish bo'yicha ishchi faraz aniqlab olindi. Tajriba-sinovning dastlabki bosqichlarida zoologiya darslarida ko'rgazmali va amaliy usullardan foydalanishni tashkil etishning metodik jihatlari o'rganildi va ko'rsatilgan metodik jihatlarda asosida ko'rgazmali va amaliy usullar samaradorligining mezonlari aniqlandi.

Darslarda ko'rgazmali hamda amaliy usullardan foydalanish orqali o'quvchilarda quyidagi mezonlar shakllantirildi: ilmiy tadqiqot olib borish qobiliyati, ijodkorlik, mustaqil izlanish, ilmiy-amaliy dunyoqarashini shakllantirish, fanga qiziqishini chuqurlashtirish.

Tajriba-sinov sinflarida zoologiya darslarida ko'rgazmali va amaliy usullardan foydalanish bo'yicha o'tkazilgan mashg'ulotlardan so'ng topshirilgan nazorat natijalari nazorat guruhlarida an'anaviy uslubda o'tilgan mashg'ulotlar natijalariga nisbatan farq aniqlandi (1,2-jadvallar).



**1-jadval**

Ko'rgazmali va amaliy uslublardan foydalanish asosida Samarqand shahar 14-maktabning 7-sinflarida zoologiya fanidan o'tkazilgan darslardan so'ng tajriba-sinov natijalari

Fan nomi	Jami o'quvchilar soni	Tajriba-sinov sinfi 7-"A" sinf				Jami o'quvchilar soni	Nazorat sinfi 7-"B" sinf			
		2 ball	3 ball	4 ball	5 ball		2 ball	3 ball	4 ball	5 ball
Zoologiya	27	2	5	14	6	25	5	10	7	3
Foizlarda	100	7,4	18,5	52	22,2	100	20	40	28	12
O'rtacha o'zlashtirish ko'rsatgichi		3,88					3,32			

Samarqand shahar XTB ga qarashli 14-maktabning 7-"A" sinfi o'quvchilarning zoologiya o'zlashtirish ko'rsatgichi 7- "B" sinf o'quvchilarning zoologiya o'zlashtirish ko'rsatgichidan 11.2% ga yuqori ekanligi aniqlandi.

**2-jadval**

Ko'rgazmali va amaliy uslublardan foydalanish asosida Toyloq tumani 14-maktabning 7-sinflarida zoologiya fanidan o'tkazilgan darslardan so'ng tajriba-sinov natijalari

Fan nomi	Jami o'quvchilar soni	Tajriba-sinov sinfi 7-"A" sinf				Jami o'quvchilar soni	Nazorat sinfi 7-"B" sinf			
		2 ball	3 ball	4 ball	5 ball		2 ball	3 ball	4 ball	5 ball
Zoologiya	30	3	4	13	10	28	6	9	9	4
Foizlarda	100%	10 %	13.3 %	43.3 %	33.3 %	100%	17.9 %	32.1 %	39.3 %	10.7 %
O'rtacha o'zlashtirish		4,0					3,39			



ko'rsatgichi				
--------------	--	--	--	--

Toyloq tumani XTB ga qarashli 14-maktabning 7-"A" sinfi o'quvchilarning zoologiya o'zlashtirish ko'rsatgichi 7- "B" sinf o'quvchilarning zoologiya fani o'zlashtirish ko'rsatgichidan 12.2% ga yuqoriligi qayd etildi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, zoologiya fanini o'qitishda amaliy va ko'rgazmali uslublarni qo'llash o'quvchilarning faolligi va ularning o'zlashtirishining sifat ko'rsatkichini oshiradi. Dars jarayonida amaliy va ko'rgazmali uslublardan foydalanish o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini shakllantirib, darsga ishtiyoq bilan qatnashish imkoniyatini ta'minlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ruziqulova N.A., & Turaqulova M.N. (2023). BIOLOGIYA FANINI O'QITISH SAMARADORLIGIGA DIDAKTIK O'YINLARNING TA'SIRI. *UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES*, 1(6), 51–55. Retrieved from <https://humoscience.com/index.php/lfas/article/view/1924>
2. Ruziqulova , N. A., & Bahriyeva, G. (2023). ZOOLOIYA FANI MAVZULARINI O'QITISHDA AMALIY USLUBLARNING QO'LLANILISHI. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(1 Part 5), 182–185.
3. Ruzikulova, N. A. (2022). Biology and Life Cycle of *Candaharia levanderi* (Simroth, 1901). *Bulletin of Pure & Applied Sciences-Zoology*, 41(2), 262-266.
4. Рузикулова, Н. А. (2021). ФАУНА НАЗЕМНЫХ МОЛЛЮСКОВ НЕКОТОРЫХ ГОРОДОВ УЗБЕКИСТАНА. *Обмен научными знаниями в условиях глобализации* (pp. 169-171).
5. Иззатуллаев, З. И., & Рузикулова, Н. А. (2020). Особенности экологии и жизненных циклов водных моллюсков Средней Азии. *Бюллетень Дальневосточного малакологического общества*, 24(1/2), 37-52.
6. ТУРАКУЛОВА, М. Н., & РУЗИКУЛОВА, Н. А. ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГРОВЫХ МЕТОДОВ НА УРОКАХ ЗООЛОГИИ. *ИНТЕРНАУКА Учредители: Общество с ограниченной ответственностью "Интернаука"*, 37-38.
7. Ruzukulova N.A. (2022). Biology and Life Cycle of *Candaharia levanderi* (Simroth, 1901). *Bulletin of Pure & Applied Sciences-Zoology*, (2).
8. Turakulova, M., & Ruzikulova, N. (2023). THE SIGNIFICANCE OF DIDACTIC GAMES IN ASSESSING STUDENTS'KNOWLEDGE. *Science and innovation*, 2(B3), 65-67.
9. Nosirova, A., & Ruziqulova, N. (2023). SOME PROBLEMS OF LEARNING ENGLISH AND ALSO SOME POSITIVE



- SOLUTIONS. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(11), 193-194.
10. Ruzikulova N.A. (2023). Information on the Reproductive Cycle of *Costatela acuta* (Draparwand, 1805). *Bulletin of Pure & Applied Sciences-Zoology*, (2).
  11. Рузикулова, Н. А. (2021). ФАУНА НАЗЕМНЫХ МОЛЛЮСКОВ НЕКОТОРЫХ ГОРОДОВ УЗБЕКИСТАНА. In *Обмен научными знаниями в условиях глобализации* (pp. 169-171).
  12. Иззатуллаев, З. И., & Рузикулова, Н. А. (2020). Особенности экологии и жизненных циклов водных моллюсков Средней Азии. *Бюллетень Дальневосточного малакологического общества*, 24(1/2), 37-52.
  13. Рузикулова, Н. А. (2021). ФАУНА НАЗЕМНЫХ МОЛЛЮСКОВ НЕКОТОРЫХ ГОРОДОВ УЗБЕКИСТАНА. In *Обмен научными знаниями в условиях глобализации* (pp. 169-171).
  14. Иззатуллаев, З. И., & Рузикулова, Н. А. (2020). Особенности экологии и жизненных циклов водных моллюсков Средней Азии. *Бюллетень Дальневосточного малакологического общества*, 24(1/2), 37-52.
  15. ТУРАКУЛОВА, М. Н., & РУЗИКУЛОВА, Н. А. ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДИДАКТИЧЕСКИХ ИГРОВЫХ МЕТОДОВ НА УРОКАХ ЗООЛОГИИ. *ИНТЕРНАУКА Учредители: Общество с ограниченной ответственностью "Интернаука"*, 37-38.

